

O'SMIRLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA SHAXSIY XUSUSIYATLAR VA PSIXOLOGIK OMILLAR

Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna

Alfraganus Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti

Turg'unova Sarvinoz Fazliddin qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya

yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'smirlarning ijtimoiylashuvida shaxsiy xususiyatlar va psixologik omillar tahlil qilinadi. O'smirlarda shaxslararo munosabatlari, ijtimoiylashuvi hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar keng yoritilgan. Shuningdek, Erik Erikson, Lev Vygotsky va Jean Piage kabi mashhur psixologlarning nazaryialariga tayanilgan. O'smirlarda do'stlari bilan munosabatlari, guruhga mansublik hissi, ota-onalari bilan bo'lgan ziddiyatlar ko'rib chiqilgan. Maqolada o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonida oilaviy muhit, ta'lim muassasalari, shaxsiy xususiyatlar, psixologik omillar va axborot vositalari muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, ijtimoiylashuv, oilaviy tarbiya, pedagogik yondashuv, shaxslararo munosabatlar, motivatsiya, tengdoshlar bosimi, emotsional barqarorlik, ijtimoiy tarmoqlar, temperament, muloqot, mustaqil.

Аннотация: В данной статье анализируются личностные особенности и психологические факторы социализации подростков. Широко освещаются межличностные отношения, социализация, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на этот процесс. В статье также опираются на теории таких известных психологов, как Эрик Эриксон, Лев Выготский и Жан Пиаже. Рассматриваются отношения подростков с друзьями, чувство принадлежности к группе и конфликты с родителями. В статье подчёркивается, что семейная среда, образовательные учреждения, личностные особенности, психологические факторы и средства массовой информации играют важную роль в социализации подростков.

Ключевые слова: Подростковый возраст, социализация, семейное воспитание, педагогический подход, межличностные отношения, мотивация, давление со стороны сверстников, эмоциональная устойчивость, социальные сети, темперамент, общение, самостоятельность.

Annotation: This article analyzes the personality characteristics and psychological factors in the socialization of adolescents. The interpersonal relationships, socialization, and internal and external factors affecting this process are

widely covered. It also relies on the theories of such famous psychologists as Erik Erikson, Lev Vygotsky, and Jean Piaget. Adolescents' relationships with friends, sense of belonging to a group, and conflicts with their parents are considered. The article emphasizes that the family environment, educational institutions, personal characteristics, psychological factors, and media play an important role in the socialization of adolescents.

Keywords: Adolescence, socialization, family upbringing, pedagogical approach, interpersonal relationships, motivation, peer pressure, emotional stability, social networks, temperament, communication, independence.

O'smirlik davri - inson hayotining juda muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda shaxsiylik, mustaqillik, va o'zini anglash kuchayadi. O'smirlarning shaxslararo munosabatlarida quyidagi o'ziga xos jihatlar kuzatiladi. Do'stlik va tengdoshlar bilan munosabatlar ustuvorligi o'smirlar uchun tengdoshlar (yoshdoshlar) bilan aloqa qilish nihoyatda muhim bo'ladi va do'stlar fikri ota-onanikidan ko'ra ko'proq ahamiyat kasb etishi mumkin, guruhga mansublik hissi kuchayadi - bu o'zini jamiyatda topish va ijtimoiy rol o'rnatish istagidan kelib chiqadi.

O'smirlarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillarni o'rgangan ko'plab psixolog, sotsiolog va pedagog olimlar mavjud. Quyida shu sohada muhim nazariyalar yaratgan va tadqiqotlar olib borgan ayrim mashhur olimlar keltirib o'tamiz. Erik Erikson psixosijtimoiy rivojlanish nazariyasida o'smirlikni "identifikatsiya inqirozi" bosqichi deb atagan. Bu davrda inson o'zini kim deb bilishini aniqlaydi. Uning fikricha, o'smirning ijtimoiylashuvi uchun shaxsiy identitet shakllanishi juda muhim. Shuningdek, Lev Vygotsky madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi bola rivojida ijtimoiy muhit va muloqot asosiy omil deb hisoblangan. "Yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi orqali pedagogik yondashuvni asoslab bergan. Shu bilan birga, Jean Piage kognitiv rivojlanish nazariyasi o'smirlikni formal operatsion bosqich deb atagan, bu davrda inson abstrakt fikrlashni o'rganadi. Piage fikricha, o'smirlar do'stlari va muhit orqali ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradilar.

Shaxsiy identifikatsiya va mustaqillik istagi o'smir o'zini alohida shaxs sifatida ko'rsatishga intiladi. Ota-ona yoki kattalar nazorati bilan ziddiyatlar kuchayishi mumkin. Mustaqil fikrlash va o'z qarorlarini qabul qilishga intilish munosabatlarga ta'sir qiladi. Hissiy o'zgaruvchanlik va sezuvchanlik gormonlar ta'sirida kayfiyat tez-tez o'zgaradi, bu esa munosabatlarda to'sqinliklar yoki tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. O'smirlar ko'pincha o'zini tushunmayapti deb his qilishadi, bu esa yakkalanishga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, romantik munosabatlarning paydo bo'lishi, qarama-qarshi jins vakillariga qiziqish kuchayadi. O'smirlar ilk marta romantik munosabatlarga kirishadi, bu esa yangi hissiy tajriba bo'ladi va bu davrda sevgi va muhabbatga bo'lgan tushunchalar shakllana boshlaydi. Ijtimoiy tarmoq va

texnologiyalarning ta'siri bu o'smirlar orasida shaxslararo munosabatlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar orqali yuritiladi va real (yuzma-yuz) muloqot ko'nikmalarining sustlashishiga olib kelishi mumkin. Raqobat va o'zini tasdiqlash ehtiyoji o'smirlar o'zini boshqalardan ustun qo'yishga harakat qilishi mumkin. Bu esa, raqobat kayfiyatida bo'lish, tanqidga sezgirlik, yoki o'z-o'zini tanqid qilish shaklida namoyon bo'ladi.

O'smirlarning ijtimoiylashuviga (ijtimoiy muhitga moslashuvi va jamiyat bilan o'zaro aloqalarni shakllantirishi) turli ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi.

Quyidagilarni asosiy omillar sifatida ko'rib chiqish mumkin. Oilaviy tarbiya – ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar o'smirning ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy holat – farovonlik darajasi, ota-onaning bandligi va daromadi o'smirning imkoniyatlariga va o'ziga bo'lgan ishonchiga ta'sir qiladi. Oilaviy munosabatlar sifati – mehr, tushunish va qo'llab-quvvatlash darajasi o'smirning psixologik holatini belgilaydi. Do'stlar va tengdoshlar guruhi tengdoshlar bosimi – do'stlarning fikri va xatti-harakatlari o'smirning o'zini tutishiga bevosita ta'sir qiladi. Guruhga mansublik hissi – o'smir o'zini muayyan guruhga tegishli his qilsa, ijtimoiy qoidalarni tezroq o'zlashtiradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – do'stlar orqali hissiy yordam va ma'naviy kuch olish ijtimoiy rivojlanish uchun muhim. Ta'lim muassasalari maktab muhiti – o'qituvchilar bilan aloqa, sinfdoshlar o'rtasidagi munosabatlar, maktabning madaniy muhiti ijtimoiylashuvda katta rol o'ynaydi. Tarbiya va ma'naviy ishlar – maktabda o'tkaziladigan tadbirlar, tarbiyaviy suhbatlar va klublar ijtimoiy faoliyatni rivojlantiradi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar internet va ijtimoiy media – bugungi kunda o'smirlar o'z qarashlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllantirishmoqda. Axborot oqimi – film, blog, vlog, o'yinlar orqali berilayotgan qadriyatlar va xatti-harakatlar namunasi ularning dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Shaxsiy omillar temperament va xarakter – introvert yoki ekstrovert bo'lishi, hissiy barqarorlik darajasi ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. O'ziga bo'lgan baho va ishonch – o'smirning o'ziga nisbatan ijobiy fikrda bo'lishi uni faolroq va ochiqqo'lroq qiladi. Shuningdek, motivatsiya – maqsadga intilish va o'zini jamiyatda ko'rsatishga bo'lgan istak ijtimoiylashuvni kuchaytiradi. Madaniy va ijtimoiy muhit hudud va makon – shaharda yoki qishloqda yashash, atrof-muhitdagi imkoniyatlar va madaniyat darajasi farq qiladi va urf-dodlar va qadriyatlar – jamiyatdagi an'analar, milliy qadriyatlar va din ijtimoiy me'yorlarni belgilaydi.

Shaxsiy xususiyatlarning roliga o'ziga ishonch darajasi o'smirning yangi odamlar bilan muloqot qilishga bo'lgan tayyorligi va faoliyatini belgilaydi. O'ziga ishonchi yuqori bo'lgan o'smirlar ijtimoiy faolroq va do'stlar orttirishga intilishadi. Shu bilan bir qatorda, ichki motivatsiya o'smirning ijtimoiy faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji, o'zini anglash istagi ijtimoiylashuv jarayonini rag'batlantiradi. Emotsional barqarorlik stress va qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyati o'smirning ijtimoiy muhitda o'zini

tutishiga ta'sir qiladi. Emotsional barqaror o'smirlar yangi vaziyatlarga osongina moslashadi. Empatiya boshqalar his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati ijtimoiy munosabatlarning sifatini yaxshilaydi va jamoada muvaffaqiyatli integratsiyaga yordam beradi. Psixologik omillarga esa, o'zini anglash o'smir o'zining kimligini, qobiliyatlari va chegaralarini anglash orqali ijtimoiy munosabatlarda o'zini to'g'ri tutishni o'rganadi. Stress va bezovtalik o'smirlikda yuzaga keladigan ruhiy bosimlar (masalan, o'quvdagi muvaffaqiyatsizlik, do'stlar bilan muammolar) ijtimoiylashuv jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Ijtimoiy tashvish: Ba'zi o'smirlar odamlar orasida gapirish, guruhda bo'lishdan qo'rqishadi, bu esa ularning ijtimoiylashuviga to'sqinlik qiladi. Shaxsiy izlanishi o'smir o'zini qidirish va ijtimoiy guruhlarga moslashishga intilish jarayonida ko'plab psixologik o'zgarishlar yuz beradi. Shaxsiy xususiyatlar va psixologik omillarni rivojlantirish yo'llarida esa, ota-ona va o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirishi bo'lishi lozim. Psixologik treninglar va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar bo'lishi maqsadga muvofiq. Stressni boshqarish va emotsiyalarni ifodalash ko'nikmalarini o'rgatish kerak. O'smirning ijtimoiy faoliyatda qatnashishini rag'batlantirish zarur xisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davrida shaxslararo munosabatlar murakkablashadi, yangi shakllar va hissiyotlar paydo bo'ladi. Bu davrda ota-onalar, ustozlar va pedagoglarning sabrli, tushunadigan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O'smirlarning ijtimoiylashuvi ularning shaxsiy xususiyatlari va psixologik holatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, ushbu omillarni to'g'ri tushunish va rivojlantirishga e'tibor qaratish o'smirlarni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.G'G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Noshir.2010 y. 360 b.
2. Jumayev, N.Z. Ontogenez psixologiyasi. o'quv qo'llanma / N.Z. Jumayev .- Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-252 b.
3. Кулагина, И. Ю. Возрастная психология: развитие ребенка от рождения до 17 лет. / И. Ю. Кулагина. - М.: УРАО,1999. - 175 с.
4. Карабанова О.А. Роль семьи и школы в обеспечении психологического благополучия младших школьников // Психологическая наука и образование. 2019. Т. 24. № 5. С. 16-26. DOI: 10.17759/pse.2019240502.